O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60211700-Xalq ijodiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishining

MALAKA TALABLARI

Toshkent - 2025

O‘zR OTFIV
Buyruq№ 316
2025yil “21” 08

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil “21” avgust dagi 316 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	**Umumiy tavsifi**	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	6
2.	**Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**	8
3.	**Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar**	10
4.	**Fanlar katalogining tuzilishi**	12
	Bibliografik ma’lumotlar	15
	Kelishuv varag‘i	16

1. Umumiy tavsifi

60211700-Xalq ijodiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60211700-Xalq ijodiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

60211700-Xalq ijodiyoti: (an'anaviy xonandalik, folklor ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari san'at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida, davlat korxona va tashkilotlarida, ta'lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi san'atga oid ishlar bilan bog'liq tashkiliy-ijodiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashgan maktab, o'rta maxsus va professional ta'lim, bolalar musiqa va san'at maktablari, musiqa sohasi bo'yicha ixtisoslashgan o'rta maxsus va texnikumlarda ta'lim yo'nalishiga oid fanlar, musiqa madaniyati fani

hamda maktabdan tashqari ta'limda to'garak fanlari o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

madaniyat markazlari va umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

madaniyat va san'at sohasini boshqarishga tegishli muammolarni hal qilish va san'at ta'lim sohasining yo'nalishlarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalish bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari san'at va madaniyat muassasalaridagi ijodiy jarayonni tashkil etish, faoliyat tizimini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, san'at va madaniyat sohasida kompleks masalalarni yechish, madaniyat va san'at sohasini boshqarishga tegishli muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Madaniyat, san'at xalq badiiy ijodiyoti va ijtimoiy sohalarda tashkilotchilik va boshqaruv jarayoni, professional va havaskor badiiy jamoalarda ijodiy jarayoni, bolalar musiqa va san'at maktablaridagi o'quv-tarbiya jarayoni, madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish jarayonlari, madaniyat va san'at muassasalari ijodiy jarayonlari.

San'at sohasidagi tegishli jarayonlar, ijodiy faoliyat, mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san'at sohasining axborot va dasturiy ta'minoti, yaratilgan asarlar va ularning targ'iboti, ijodiy g'oyalarini loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish, o'quv-tarbiya jarayonlari.

60211700-Xalq ijodiyoti: (an'anaviy xonandalik, folklor ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari madaniyat va san'at muassasalarida boshqaruv sohasida, musiqiy jamoalar rahbarlari; bolalar musiqa va san'at maktablarida boshqaruv va pedagogik sohalarda, musiqa sohasi bo'yicha ixtisoslashgan madaniyat va san'at maktablarida boshqaruv va pedagogik sohada, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati o'qituvchisi va to'garak rahbari sifatida faoliyat olib borishi mumkin.

60211700-Xalq ijodiyoti: (an'anaviy xonandalik, folklor ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi) ta'lim yo'nalishlarida OTMda tashkil etilgan maxsus komissiya quyi kurslarda saralangan ayrim bitiruvchilarga Davlat attestatsiyasi qarori bilan ma'lum bir fanni (Cholg'u ijrochiligi, Xalq cholg'ularini o'rganish) yuqori darajada o'zlantirganda qo'shimcha kvalifikatsiyalari berilishi mumkin.

60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalish bo'yicha bakalavr bitiruvchilari Baxshi (xalfa, jirov, oqin ijrochilik) yo'nalishlaridan biri ko'rsatiladi. Baxshichilik va dostonchilik fanlari o'qituvchisi kvalifikatsiyalariga ega bo'lishi mumkin.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ijodiy-ijrochilik faoliyati;
- pedagogik faoliyati;

- ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyat.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60211700-Xalq ijodiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:

musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog'liq ijodiy ishlarni olib borish;

ularni ijro etish ko'nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash;

ijro etilayotgan asarlarning mazmuni, shakli va uslubini tushunish hamda baholash;

katta va kichik jamoalarni badiiy rahbar sifatida boshqara olish;

ansambllarga rahbarlik qila olish;

musiqiy asarlarning badiiy konsepsiyasini yaratib, teatr-konsert muassasalari, badiiy jamoalar, o'quv jarayonidagi turli jamoalarda (orkestr, xor, ansambllar) xonandalik, sozandalik va dirijorlik qilish;

ijrochilikda improvizatsiya (badihago'ylik) ifodaviylik vositalarini qo'llash;

jamoada ijrochilik ***qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.***

Ijodiy-ijrochilik faoliyatida: (*60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik)* ta'lim yo'nalishi)

xalq dostonlarini yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog'liq ijodiy ishlarni olib borish;

xalq dostonlarini ijro etish ko'nikmasi va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash;

ijro etilayotgan xalq dostonlarining mazmuni, shakli va uslubini tushunish, dostonchilik maktablarining ijro usullarini ajrata bilishi va ijroni baholash;

katta va kichik jamoalarni badiiy rahbar sifatida boshqara olish;

turli xil jamoalarni biriktirgan holda xalq dostonlarining ijrosiga rahbarlik qila olish;

ijrochilikda nag'ma va nomalarni o'z o'rnida qo'llash, ijroda badihago'ylik san'atini namoyish etishi;

doston ijrosida aktyorlik ***qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.***

Pedagogik faoliyatda:

umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional, maktabdan tashqari ta'lim tizimining ixtisoslikka mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish usullarini ishlab chiqish;

o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish, tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;

mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

o‘quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;

musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta’lim jarayoniga singdirish;

o‘quv jarayonini, o‘quv-uslubiy, ma’naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg‘or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish;

o‘quv jarayonini rejalashtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlash, o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rijonlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish, hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o‘rnatish.

Ijtimoiy-ma’rifiy faoliyatda:

kasbiy va havaskorlik badiiy jamoalarda rahbar va maslahatchi sifatida keng ko‘lamda musiqiy-ma’rifiy ishlarni olib borish, milliy va jahon musiqa ijodiyoti, ijrochilik yutuqlarini targ‘ib etish;

yoshlar bilan musiqiy-tarbiyaviy ishlar bilan shug‘ullanish, aholi tarkibidagi har xil guruh va qatlamlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olishni uddalash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;

tashkilotchilik, rahbarlik, pedagoglik, xonandalik, sozandalik ko‘nikmalarini amaliyotga tatbiq qilish;

ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

xonandalik va sozandalik ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda musiqa san’ati, musiqa pedagogikasi va madaniyatiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

musiqa san’atiga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

kasbiy faoliyat obyekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilishdan iborat.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

san’at asarlari samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o‘zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

og‘zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta’rif va xulosalarni mantiqiy, to‘g‘ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi;

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

60211700-Xalq ijodiyoti: (an'anaviy xonandalik, folklor ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi) ta'lim yo'nalishlari madaniyat va san'at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;

badiiy jamoalar va to'garaklar, festival, ko'rik-tanlovlarni tashkil etish;

badiiy jamoalar va to'garaklarning uslubiy ta'minotini tashkil qilish va ular uchun repertuarlar tanlash;

xalq kuy-qo'shiqlarini notalashtirish va moslashtirish;

festival, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish;

O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va targ'ib etish bilan bog'liq tashkiliy va ijodiy ishlarda qatnashish;

musiqiy ijrochilikka zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish;

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

ta'lim jarayoni subektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallash;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi;

uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik hamda mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatliligi.

madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish, madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish;

aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish kabi ko'nikmalariga ega bo'lish.

60211700-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishi xalq ijodiyoti, o'zbek baxshichilik san'atining tarixi va nazariy masalalari (muhit, ustoz va shogird munosabatlari, dostonchilik maktablari, an'ana va badihago'ylik, epik janrlarning genezisi, ularning tizimi, dostonchilikka yozma adabiyotning ta'siri va h.k.)ni bilishi va professional faoliyatida foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;

jahon epik san'ati namunalarini farqlay olish;

dostonchilik maktablarining o'ziga xos musiqiy yo'nalishini bilishi, dostonlarda qo'llaniladigan nag'ma va nomalarni o'z o'rnida qo'llay olish, ularni notaga tushirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o‘zbek dostonchilik san’atining tarixiy taraqqiyot jarayoni, mahalliy baxshichilik uslublarining shakllanishi, yirik namoyondalari, ustoz ijrochilarning yillar davomida epik janr va shakllarida yaratgan adabiy va musiqiy repertuari, ijrochi namoyondalar ijodiy faoliyatlari, bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni, ijodkorlarning ijro uslublarini ajrata olish va tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

baxshichilik san’ati, doston kuylash mahoratini “Ustoz-shogird” an’analari doirasida avlodlarga o‘tkazish, badihago‘ylik qobiliyatini, yodlab olingan an’anaviy misralar, epik klishelar asosida yangilarini to‘qiy olish qudratini, ularni tasvir vaziyatiga qarab turli xil stilistik o‘zgarishlar bilan qo‘llay bilish san’atiga ega bo‘lishi;

xalq baxshilarining repertuar birligi, ijro va kuylarning o‘ziga xos jihatlari, dostonchilikning asriy an’analari, dostonchilik maktablariga xos poetik yo‘l, uslub, repertuar xarakteri, ijro usullarini bir-birlaridan farqlay olish;

xalq dostonlarining versiya va variantlarini to‘liq bilishi, doston ijrosida uning mohiyatini ochib bera olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, amalga oshirilayotgan harakatlar uchun shaxsiy javobgarlikni hisobga olgan holda vakolatlarni taqsimlash;

xalq ijodiyoti sohasida hamkorlik aloqalari, uchrashuvlar, mahorat darslari, seminarlarni yuqori darajada o‘tkazish;

madaniyat va san’at sohasidagi zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda ta’lim jarayonlariga oid turli usul va texnologiyalarni ishlab chiqish;

xalq ijodiyoti, baxshichilik yo‘nalishida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, doston ijrochilik san’atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda va xorijda targ‘ib eta olish.

pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta’lim oluvchilar bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, musiqiy ta’lim va tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, musiqa ta’limida metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, ularni samarali qo‘llay olish;

baxshichilik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijrochilik, ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy ta’lim vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq eta olish;

izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borishi, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish ko‘nikma va malakalariga ***ega bo‘lishi lozim;***

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish,

tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. O‘quv amaliyoti;
3. Pedagogik amaliyoti;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. *60211700-Xalq ijodiyoti* ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		**Majburiy fanlar**	**5340**	**178**	1-8
1.01	O'EYT20014	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DIN20014	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FAL20014	Falsafa	120	4	3
1.04	AT20012	Axborot texnologiyalari	60	2	1
1.05	O'JA20012	O'zbek va jahon adabiyoti	60	2	1
1.06	O'RT20015	O'zbek (rus) tili	150	5	1,2
1.07	XT20015	Xorijiy til	150	5	2,3
1.08	UPS20017	Umumiy psixologiya	210	7	1,2
1.09	UPD20018	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
1.10	MMN20014	Madaniyatshunoslik: madaniyat nazariyasi	120	4	1,2
1.11	MO'JMT20014	Madaniyatshunoslik: O'zbekiston va jahon madaniyat tarixi	120	4	3,4
1.12	O'NMM20016	O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi	180	6	4,5,6
Xalq ijodiyoti: an'anaviy xonandalik ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar					
1.13	MN20014	Musiqa nazariyasi	120	4	1,2
1.14	SOL20014	Solfedjio	120	4	1,2
1.15	BJIU20019	Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti	270	9	6,7,8
1.16	YQ200114	Yakkaxon qo'shiqchilik	420	14	1-8
1.17	Chi200114	Cholg'u ijrochiligi	420	14	1-8
1.18	SA200138	Sozandalar ansambli	1140	38	1-8
1.19	AA200140	Ashulachilar ansambli	1200	40	1-8
2.00		**Tanlov fanlar**	**960**	**32**	**3,4,5,6,7**
		Tanlov fanlar	960	32	3,4,5,6,7
Kvalifikatsiya		***Badiiy ansamblari rahbari, xonanda (sozanda), o'qituvchi***			

1.00		**Majburiy fanlar**	**5730**	**191**	1-8
Xalq ijodiyoti: folklor ijrochiligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar					
1.13	FT20012	Folklor tarixi	90	3	1
1.14	RAQS20014	Raqs	120	4	1,2
1.15	MN20012	Musiqa nazariyasi	60	2	2
1.16	FCha20018	Folklor cholg'ulari ansambli	240	8	4,5

1.17	O‘XE20016	O‘zbek xalqi etnografiyasi	180	6	6,7,8
1.18	FEJIU20014	Folklor-etnografik jamoalari bilan ishlash uslubiyoti	120	4	7,8
1.19	YQ200114	Yakkaxon qo‘shiqchilik	420	14	1-8
1.20	Chi200115	Cholg‘u ijrochiligi	450	15	1-8
1.21	FJI200140	Folklor jamoa ijrochiligi	1200	40	1-8
1.22	FAS200140	Folklor asarlarini sahnalashtirish	1200	40	1-8
2.00		**Tanlov fanlar**	**570**	**19**	**3,5,6,7**
		Tanlov fanlar	570	19	3,5,6,7
Kvalifikatsiya		***Folklor jamoalar badiiy rahbari, xonanda (sozanda), o‘qituvchi***			

1.00		**Majburiy fanlar**	**5460**	**182**	1-8
Xalq ijodiyoti: cholg‘u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha majburiy fanlar					
1.13	MN20012	Musiqa nazariyasi	60	2	1
1.14	SOL20012	Solfedjio	60	2	2
1.15	FOR20013	Fortepiano	90	3	3,4,5
1.16	ChjIU20018	Cholg‘u jamoalari bilan ishlash uslubiyoti	240	8	7,8
1.17	XCho‘20016	Xalq cholg‘ularini o‘rganish	180	6	1-6
1.18	MCh200116	Maxsus cholg‘u	480	16	1-8
1.19	DIR200116	Dirijorlik	480	16	1-8
1.20	AS200128	Ansambl sinfi	840	28	1-8
1.21	OS200146	Orkestr sinfi	1380	46	1-8
2.00		**Tanlov fanlar**	**840**	**28**	**3,4,5,6,7**
		Tanlov fanlar	840	28	3,4,5,6,7
Kvalifikatsiya		***Cholg‘u jamoalari rahbari, sozanda (dirijor), o‘qituvchi***			

1.00		**Majburiy fanlar**	**5550**	**185**	1-8
Xalq ijodiyoti: vokal ijrochiligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha majburiy fanlar					
1.13	MN20012	Musiqa nazariyasi	60	**2**	1
1.14	SOL20012	Solfedjio	60	**2**	1
1.15	FOR20015	Fortepiano	150	**5**	1-5
1.16	Chi20014	Cholg‘u ijrochiligi	120	**4**	2,3,4,5
1.17	VTA20014	Vokal texnikasi asoslari	120	**4**	2,3
1.18	XO‘M20017	Xonandalikni o‘qitish metodikasi	210	**7**	4,5,6
1.19	ARJ20014	Aranjirovka	120	**4**	6,7
1.20	VK200115	Vokal	450	**15**	1-8
1.21	VA200133	Vokal ansambli	990	**33**	1-8
1.22	DIR200116	Dirijorlik	480	**16**	1-8

1.23	JI200138	Jamoa ijrochiligi	1140	**38**	1-8
2.00		**Tanlov fanlar**	**750**	**25**	**5,6,7,8**
		Tanlov fanlar	750	25	5,6,7,8
Kvalifikatsiya		***Xor jamoalari rahbari, xonanda (dirijor), o'qituvchi***			
		Jami	**6300**	**210**	
		Malakaviy amaliyotlar	**900**	**30**	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			
		Jami	**900**	**30**	
		HAMMASI	**7200**	**240**	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002:651.1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Badiiy jamoalar, to'garaklar, uslubiy ta'minot, badiiy jamoalar uchun repertuarlar, xalq kuy-qo'shiqlari, notalashtirish,sozanda, rahbar, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi, tashkiliy va ijodiy ishlar, musiqiy ijrochilik, zamonaviy texnologiyalar, madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish, madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish, ijodiy-ijrochilikni tashkil etish, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obe'kti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalaviratning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka talablari, sohalar, baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyat, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, badiiy rahbar, musiqa rahbari, ansambl rahbari, pedagog, cholg'u jamoasi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari
ISHLAB CHIQILGAN;

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor _____ **N.Sayfullayev**

2025-yil "4" avgust

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor _____ **A.Xoliqov**

2025-yil "11" avgust

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'lim

Boshlig'i _____ **Sh.Sharipov**

2025-yil "19" avgust

M.O'.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi

Boshlig'i _____ **M.Yuldashev**

2025-yil "4" avgust

M.O'.

O'zbekiston davlat filarmoniyasi

Direktor _____ **A.Tojiboyev**

2025-yil "12" avgust

M.O'.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Rektor v.b. _____ **E.Shermanov**

2025-yil "5" avgust

M.O'.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Rektor _____ **K.Urinbayev**

2025-yil "7" avgust

M.O'.